

BUXGALTERIYA HISOBOTLARI ASOSIDA MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARNING STATISTIK TAHLILI: NAZARIY VA USLUBIY YONDASHUVLAR

Safarov Sherzod Tursunovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Iqtisodiy statistika" kafedrasida assistenti

sherzod_safarov_1988@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada buxgalteriya hisobotlari asosida moliyaviy ko'rsatkichlarning statistik tahlilini amalga oshirishning nazariy asoslari va uslubiy yondashuvlari yoritilgan. Mavzuning dolzarbligi iqtisodiy axborotlarning ishonchligi va tahliliy qiymatining ortib borayotgan talabida namoyon bo'ladi. Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar sharhi, SWOT tahlil va statistik yondashuvlar asosida buxgalteriya ma'lumotlarining tahliliy imkoniyatlari o'rganilgan. Shuningdek, statistik ko'rsatkichlar orqali moliyaviy holatni chuqur tahlil qilish, qaror qabul qilishda axborot ta'minotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari buxgalteriya hisobotlarini statistik baholash jarayonida zamonaviy yondashuvlar va metodologik asoslarning ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: *Buxgalteriya hisobotlari, moliyaviy ko'rsatkichlar, statistik tahlil, nazariy yondashuv, uslubiy asos, SWOT tahlil, axborot ishonchligi, iqtisodiy tahlil, qaror qabul qilish, moliyaviy monitoring.*

БУХГАЛТЕРСКАЯ ОТЧЕТНОСТЬ КАК ОСНОВА СТАТИСТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА ФИНАНСОВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Сафаров Шерзод Турсунович

*Ассистент кафедры «Экономическая статистика» Ташкентского
государственного экономического университета*

sherzod_safarov_1988@mail.ru

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические основы и методологические подходы к статистическому анализу финансовых показателей на основе бухгалтерской отчетности. Актуальность темы проявляется в возрастающей потребности в достоверной экономической информации и её аналитической ценности. Автором проведен обзор научной литературы, SWOT-анализ и применены статистические подходы к изучению аналитических

возможностей бухгалтерских данных. Кроме того, разработаны предложения по совершенствованию информационного обеспечения принятия управленческих решений через углублённый анализ финансового состояния с помощью статистических показателей. Результаты исследования обосновывают важность современных подходов и методологических основ в статистической оценке бухгалтерской отчетности.

Ключевые слова: бухгалтерская отчетность, финансовые показатели, статистический анализ, теоретический подход, методологическая база, SWOT-анализ, достоверность информации, экономический анализ, принятие решений, финансовый мониторинг.

STATISTICAL ANALYSIS OF FINANCIAL INDICATORS BASED ON ACCOUNTING REPORTS: THEORETICAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES

Safarov Sherzod Tursunovich

Assistant at the Department of Economic Statistics, Tashkent State University of Economics

sherzod_safarov_1988@mail.ru

Abstract: This article explores the theoretical foundations and methodological approaches to the statistical analysis of financial indicators based on accounting reports. The relevance of the topic lies in the growing demand for reliable economic information and its analytical value. The author conducts a review of academic literature, applies SWOT analysis and statistical methods to assess the analytical potential of accounting data. In addition, the study develops proposals to improve decision-making processes through in-depth analysis of financial conditions using statistical indicators. The research results justify the significance of modern approaches and methodological foundations in the statistical evaluation of accounting reports.

Keywords: *accounting reports, financial indicators, statistical analysis, theoretical approach, methodological framework, SWOT analysis, information reliability, economic analysis, decision-making, financial monitoring.*

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobotlari va statistik tahlil usullarining integratsiyasi korxonaning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilishda, resurslardan oqilona foydalanishni aniqlashda, investitsion salohiyatini baholashda va iqtisodiy qarorlarni asoslashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xususan, moliyaviy ko'rsatkichlarning statistik tahlili orqali korxonaning hozirgi faoliyatini baholash bilan

birga, uning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari, risk darajasi va barqarorligi haqida ham puxta xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, statistik tahlil uslublarini buxgalteriya ma‘lumotlariga qo‘llash, moliyaviy ko‘rsatkichlarni chuqur va tizimli o‘rganish zamonaviy boshqaruvning ajralmas elementi bo‘lib bormoqda.

Bugungi kunda korxonalar va tashkilotlar tomonidan tuziladigan asosiy moliyaviy hisobot shakllari – buxgalteriya balans (1-shakl), moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (2-shakl), pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot (3-shakl) va kapital harakati hisobotlari hisoblanadi. Ushbu hisobot shakllari korxonalar aktivlari, majburiyatlari, sof foydasi, daromadlar va xarajatlar tarkibini ochib beruvchi asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, buxgalteriya hisobotlarida keltirilgan ma‘lumotlarni statistik tahlil usullari yordamida o‘rganish, ularni grafik va matematik modellarga solishtirish orqali yanada chuqurroq xulosalar olish mumkin bo‘ladi. Masalan, trend tahlili, ko‘rsatkichlar dinamikasi, o‘rtacha va nisbat ko‘rsatkichlar, korrelyatsion-regression modellari kabi statistik yondashuvlar buxgalteriya ma‘lumotlarining informatsion salohiyatini bir necha barobarga oshiradi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ–4611-sonli qarori orqali statistika sohasida islohotlar boshlanib, statistik axborotlarning aniqligi, tizimliliigi va ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha muhim chora-tadbirlar belgilab berildi². Bu esa iqtisodiy statistika bilan buxgalteriya hisobotlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik o‘rnatilishi, ular asosida barqaror moliyaviy boshqaruvni shakllantirish zaruratini yanada kuchaytirdi. Shu jihatdan ham statistik tahlil usullarining korxonalarining moliyaviy hisobotlariga qo‘llanishi, ularning samaradorligini oshirish va moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi ishonchlilik darajasini kuchaytiradi.

Statistik tahlilning nazariy va uslubiy asoslari buxgalteriya ko‘rsatkichlarini chuqurroq anglash, ularni iqtisodiy mazmunga ega xulosalarga aylantirish imkonini beradi. Buxgalteriya hisobining funksiyasi – buxgalteriya axborotini to‘plash, tizimlashtirish va taqdim etish bo‘lsa, statistik tahlilning vazifasi – ushbu axborotlar asosida izlanish olib borish, qonuniyatlarni aniqlash, ehtimoliy rivojlanish senariylarini ilgari surishdir. Bu ikki yondashuvning uyg‘unligi zamonaviy iqtisodiy tahlilning fundamental negizini tashkil etadi.

Statistik ko‘rsatkichlarga tayanadigan moliyaviy tahlil turlari — rentabellik ko‘rsatkichlari, likvidlik darajasi, to‘lov qobiliyati, moliyaviy barqarorlik, aktivlarning aylanish koeffitsiyentlari, foyda va zararlar dinamikasi — korxonaning real moliyaviy ahvolini tasvirlash imkonini beradi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Davlat

¹ Gujarati, D. (2003). *Basic Econometrics*. McGraw-Hill.

² <https://lex.uz/docs/-4746047>

statistika qo`mitasi ma'lumotlariga ko`ra, 2023-yilda yirik sanoat korxonalarining sof foydasi 18,2 foizga o'sgan, biroq ularning aktiv aylanish ko'rsatkichi o'rtacha 1,4 barobarga pasaygan³. Bunday tafovutlar faqat buxgalteriya ma'lumotlariga qarab emas, balki statistik ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Ushbu ilmiy maqola dolzarbligi shundaki, u buxgalteriya hisobotlarining ma'lumotlarini nazariy va uslubiy asosda statistik tahlil qilish orqali moliyaviy tahlilning imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, SWOT tahlil asosida moliyaviy axborotlar kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlar va tahdidlar orqali strategik qarorlar ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, maqolada statistik tahlil va buxgalteriya axboroti o`rtasidagi bog`liqliklar aniq misollar va metodlar asosida tahlil qilinadi, bu esa ilmiy-amaliy yondashuvlarni chuqurlashtirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So`nggi yillarda buxgalteriya hisobotlari asosida moliyaviy ko'rsatkichlarning statistik tahliliga doir ilmiy qarashlar iqtisodiy nazariya va amaliyotda tobora keng o`rin egallamoqda. Xususan, bu boradagi ilmiy izlanishlar ikki asosiy yo`nalishga – buxgalteriya axborotlarini statistik usullarda tahlil qilish nazariyasini chuqurlashtirish va zamonaviy iqtisodiy axborot texnologiyalari orqali tahlil samaradorligini oshirishga qaratilgan. A.A. Karimov, S.S. Qurbonboev va A.A. Jo`manazarov [4] tomonidan ishlab chiqilgan “Moliyaviy hisob va audit” nomli o`quv qo`llanmada buxgalteriya hisobotlarining turlari va ularni iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali statistik jihatdan baholash mezonlari ko`rib chiqilgan. Mualliflar moliyaviy tahlilni yuritishda ko`p bosqichli indikatorlar tizimidan foydalanishni, ayniqsa, balansning tarkibiy qismlarini guruhlash, nisbiy ko'rsatkichlarni tuzish va dinamikani baholash usullarini taklif etganlar.

Ushbu yondashuvni K.A. Yusupova [5] tomonidan olib borilgan tadqiqot yanada chuqurlashtiradi. U o`z ishida buxgalteriya balansining tarkibiy qismlarini statistik tahlil qilishda SWOT (kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlar) tahlilidan foydalanib, statistik ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmini ishlab chiqqan. Bu esa strategik rejalashtirishda buxgalteriya hisobotlarining ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, u balans va foyda-zarar hisobotlari o`rtasidagi bog`liqlikni statistik metodlar – kovariatsiya va korrelyatsiya tahlillari orqali isbotlagan.

Mahalliy olimlardan yana biri – A.Niyozov va B. Akramov [6] raqamli texnologiyalarning buxgalteriya tahliliga ta'sirini o`rganib, Stata dasturida regressiya modellarini qo`llash orqali korxonaning investitsion salohiyatini aniqlashga xizmat qiladigan moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish usulini ishlab chiqqanlar. Ularning

³ O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2023-yil yakuniy hisoboti. www.stat.uz

tadqiqotlarida nafaqat moliyaviy nisbatlar balki ularning o'zgarish dinamikasiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar statistik modellashtirish yordamida tahlil qilinadi.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti” MTU dotsenti M.Mamatkulov [7] tomonidan ishlab chiqilgan “Moliyaviy tahlil amaliy qo'llanmasi”da esa, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida MS Excel, EViews va STATA dasturlarida buxgalteriya axborotlarini tahlil qilish algoritmlari bosqichma-bosqich ko'rsatib berilgan. Bu qo'llanma talabalarga va amaliyotchi iqtisodchilarga statistik metodlarni buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari bilan uyg'unlashtirish imkonini yaratadi.

S.S. Qurbonboev [8] esa, o'z ilmiy ishida nazariy yondashuvlar (klassik, institutsional, neoklassik)ning buxgalteriya tahliliga ta'sirini tahlil qiladi. U moliyaviy ko'rsatkichlarni talqin qilishda statistik xatolik, dispersiya, interkvartil oralig'i kabi ko'rsatkichlarning ahamiyatini e'tirof etadi.

Xorijiy adabiyotlarda esa bu yo'nalishda yanada chuqurroq statistik va matematik yondashuvlar qo'llaniladi. Xususan, R. Myskova va P. Hájek [9] tomonidan 2018-yilda o'tkazilgan tadqiqotda firmalarning samaradorligi Data Envelopment Analysis (DEA) va Z-score modellari yordamida baholangan. Bu yondashuvda statistik ma'lumotlar asosida har bir korxonaning moliyaviy barqarorligi va inqirozga uchrash xavfi aniqlanadi. Bu model ayniqsa bank sektorida faol qo'llaniladi.

Boshqa bir muhim ilmiy manba – G.Coenders [10] va hammualliflari tomonidan moliyaviy nisbatlarni kompozitsion statistik tahlil qilish bo'yicha 2022-yilda ishlab chiqilgan metodologiyadir. Bu yondashuvda ko'rsatkichlarning o'zaro nisbati, ularning logaritmik va o'zgaruvchan versiyalarini baholash orqali moliyaviy indikatorlar orasidagi real bog'liqlik aniqlanadi. Statistik regressiya modeli bilan kuchaytirilgan bu yondashuv moliyaviy tahlilda yuqori aniqlikka ega natijalarni beradi.

M.A. Alqam [11] va hammualliflari 2021-yilda Jordan kompaniyalari misolida moliyaviy ko'rsatkichlarning investitsion qarorlarga ta'sirini tahlil qilgan. Ular ANOVA testi, Pearson korrelyatsiyasi, logistik regressiya kabi statistik testlar orqali moliyaviy nisbatlarning investitsion qaror qabul qilishdagi o'rnini statistik jihatdan asoslab berganlar. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, aktivlar rentabelligi, daromadlar marjasi va qoplama koeffitsiyenti investorlar uchun eng muhim moliyaviy indikatorlardir.

K.U. Suthar [12] esa 2018-yilda moliyaviy nisbatlar tahliliga bag'ishlangan maqolasida har bir ko'rsatkichning statistik xususiyatlarini, ya'ni o'rtacha qiymat, medianasi, kvartillari, dispersiyasi va standart og'ishmalari orqali moliyaviy holatni tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqqan. U buxgalteriya ko'rsatkichlarini faqat nisbatlar emas, balki ularning taqsimoti va tendensiyalari nuqtai nazaridan ham statistik jihatdan tahlil qilish zarurligini asoslab bergan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobotlari asosida moliyaviy ko'rsatkichlarni statistik jihatdan tahlil qilish – nafaqat iqtisodiy tahlilning asosi, balki strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vositadir. Mahalliy olimlar bu borada nazariy va uslubiy asoslarni chuqurlashtirishga harakat qilayotgan bo'lsa, xorijiy olimlar zamonaviy statistik modellardan foydalanib, raqamli va ilg'or yondashuvlarni tatbiq etmoqdalar. Ikkala tajribaning integratsiyasi esa, O'zbekiston iqtisodiyotining moliyaviy tahlil tizimini takomillashtirishda mustahkam asos bo'la oladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda metodologik yondashuv sifatida adabiyotlar tahlili va SWOT tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy maqola doirasida buxgalteriya hisobotlari asosida shakllanadigan moliyaviy ko'rsatkichlarning statistik tahliliga oid mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari chuqur o'rganilib, ularning ilmiy g'oyalari solishtirildi. Shuningdek, SWOT tahlil orqali buxgalteriya hisobotlarining statistik tahlilga yaroqliligi, kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar aniqlandi hamda nazariy-uslubiy asoslar mustahkamlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Buxgalteriya hisobotlari – korxonaning moliyaviy faoliyati haqida tizimli ma'lumotlarni taqdim etuvchi asosiy axborot manbaidir. Ushbu hisobotlar asosida shakllanadigan moliyaviy ko'rsatkichlar (aktivlar, majburiyatlar, sof foyda, rentabellik, likvidlik va boshqalar) nafaqat korxonada ichki boshqaruvida, balki davlat statistika tizimi doirasida ham tahlil qilinishi lozim bo'lgan muhim mezonlardir. Biroq, amaliyotda buxgalteriya ma'lumotlaridan statistik yondashuv asosida kompleks foydalanish darajasi hali ham to'liq yo'lga qo'yilmagan. Bu esa ilmiy nuqtai nazardan turib, nazariy-uslubiy asoslarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Buxgalteriya hisobotlari korxonaning moliyaviy faoliyati to'g'risida aniq, tizimli va me'yoriy asoslangan ma'lumotlarni taqdim etadi. Ular moliyaviy qarorlar qabul qilish, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, investitsion jozibadorlikni aniqlash hamda davlat statistika tizimiga ma'lumot uzatish kabi bir qancha funksiyalarni bajaradi. Ammo buxgalteriya hisobotlarida aks etgan ko'rsatkichlarning tahlil imkoniyatlari ularni faqat hisob-kitob darajasida emas, balki statistik mezonlar asosida ham chuqur o'rganishni talab qiladi. Ayniqsa, bugungi kunda korxonalarining moliyaviy sog'lomligi, barqarorligi va rivojlanish potensialini aniqlashda statistik tahlillar muhim o'rin tutmoqda.

Buxgalteriya hisobotlaridagi ko'rsatkichlar o'zlarining statistik xarakterga ega bo'lganligi sababli, ularni an'anaviy statistik metodlar (dinamik qatorlar, indekslar, o'rtacha kattaliklar, dispersiya, kovaryatsiya, regressiya va korellyatsiya tahlili) orqali chuqur o'rganish orqali kompleks iqtisodiy xulosalar chiqarish mumkin. Ayniqsa,

balans (1-shakl) va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl) asosida shakllanadigan aktivlar, majburiyatlar, sof foyda, rentabellik, to'lovga qobiliyatlilik kabi indikatorlar statistik tahlilga ayni muddao bo'la oladi.

Quyidagi 1-jadvalda aynan buxgalteriya hisobotlaridagi asosiy ko'rsatkichlarning statistik tahlilga yaroqlilik darajasi, ularni qanday statistik usullar orqali tahlil qilish mumkinligi va amaliyotdagi qiymati haqida tizimli tahlil keltirilgan. Jadval orqali moliyaviy ko'rsatkichlarning statistik vositalar bilan qay darajada samarali ishlatilishi, bu orqali qanday iqtisodiy xulosalar chiqarish mumkinligi ilmiy asosda yoritilgan.

1-jadval

Buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlarining statistik tahlil imkoniyatlari⁴

Hisobot shakli	Asosiy ko'rsatkichlar	Statistik usul bilan tahlil qilish imkoniyati	Amaliy ahamiyati
1-shakl (Balans)	Aktivlar, majburiyatlar, kapital	Indekslar, dinamik qatorlar, trend analizi	Moliyaviy barqarorlikni baholash
2-shakl (Moliyaviy natijalar)	Sof foyda, rentabellik, daromadlar	Korellyatsiya, regressiya, o'sish sur'ati	Foydalilik va samaradorlik tahlili

Buxgalteriya hisobotlari iqtisodiy subyektlarning moliyaviy holatini aks ettiruvchi muhim axborot manbai bo'lib, ularni statistik yondashuv orqali tahlil qilish ulkan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Jadvalda keltirilgan asosiy ko'rsatkichlar – aktivlar, majburiyatlar, sof foyda, kapital, rentabellik ko'rsatkichlari va to'lovga qobiliyatlilik indikatorlari – har biri o'zining statistik tahlil imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Statistik tahlilning klassik usullari – o'rtacha kattaliklar, dispersiya, indekslar, regressiya va korellyatsiya tahlillari – buxgalteriya ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni aniqlash, ular orasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini ochib berish va boshqaruv qarorlarini asoslashda keng qo'llaniladi.

Misol uchun, aktivlar va sof foyda o'rtasidagi korellyatsion bog'liqlik korxonaning resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlashga yordam beradi. Rentabellik ko'rsatkichlari indekslar yordamida tahlil qilinsa, vaqt o'tishi bilan iqtisodiy samaradorlik qanday o'zgarayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, statistik metodlar yordamida moliyaviy barqarorlik va to'lovga qobiliyatlilik darajalari ham aniqroq o'lchanadi. Ushbu yondashuvlar natijasida, moliyaviy holatni faqat mavjud ma'lumotlar asosida emas, balki dinamik, prognozli va tahliliy kontekstda baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa boshqaruv jarayonlarini

⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

zamonaviylashtirish, risklarni minimallashtirish va resurslardan optimal foydalanish uchun zamin yaratadi.

1-jadval asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobotlarida aks ettirilgan moliyaviy ko'rsatkichlar nafaqat hisobot yuritish uchun, balki iqtisodiy tahlil va bashorat qilish uchun ham muhim statistik axborot manbaidir. Har bir ko'rsatkichning statistik tahlil imkoniyati mavjud bo'lib, ularni tizimli o'rganish orqali korxonaning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish strategiyasini chuqur tahlil qilish mumkin.

Muhim jihati shundaki, statistik tahlil vositalari buxgalteriya ma'lumotlariga chuqur ilmiy yondashuvni ta'minlaydi, bu esa boshqaruvga oid qarorlarning ishonchliligi va aniqligini oshiradi. Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar asosida amaliyotda korxonalar moliyaviy sog'lomligini monitoring qilish, xavf-xatarlarni baholash va strategik rejalashtirish jarayonlarida statistik yondashuvlarning alohida o'rni mavjudligi isbotlandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini baholash, moliyaviy barqarorligini aniqlash va strategik qarorlar qabul qilishda axborotga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, buxgalteriya hisobotlari iqtisodiy axborot tizimining asosiy elementi sifatida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy holati, xo'jalik operatsiyalari va rentabellik ko'rsatkichlari haqida aniq va tizimli ma'lumotlar beradi. Shu sababli, buxgalteriya hisobotlarining statistik tahlilga yaroqliligini baholash zamonaviy boshqaruvda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Buxgalteriya hisobotlari oddiy hisob-kitoblardan tashqari, statistik yondashuv orqali chuqur tahlil qilinsa, ular iqtisodiy qarorlar asosini shakllantirish, moliyaviy tahdidlarni oldindan aniqlash, investitsiya samaradorligini baholash va barqaror rivojlanish strategiyasini belgilashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bunday holatda statistik tahlil vositalarini qo'llash orqali mavjud ma'lumotlar chuqurroq mantiqiy, dinamik va strukturaviy jihatdan ochib beriladi.

Shu nuqtai nazardan, SWOT tahlil metodologiyasi orqali buxgalteriya hisobotlarining statistik tahlil uchun imkoniyatlari, ularning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda xavf-xatarlarini baholash dolzarb ilmiy masaladir. SWOT tahlili buxgalteriya axborotining statistik ishlov berishga qanday mos kelishini aniqlashda, tahlilning imkoniyatlarini real sharoitda baholashda va uni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashda samarali vosita hisoblanadi.

Mazkur 2-jadval orqali buxgalteriya hisobotlarining statistik tahlilga yaroqliligini SWOT komponentlari bo'yicha tizimli tahlil qilish ko'zda tutilgan. Bu yondashuv orqali nafaqat hisobotlarning hozirgi imkoniyatlari, balki ularning statistik metodlar yordamida qanday takomillashtirilishi mumkinligi ham ochib beriladi.

2-jadval

SWOT tahlil asosida buxgalteriya hisobotlarining statistik tahlilga yaroqliligi⁵

SWOT elementlari	Tavsif
Kuchli tomonlar	Ma'lumotlarning rasmiy va standartlashtirilgan shaklda yuritilishi
Zaif tomonlar	Ko'rsatkichlar o'rtasida statistik bog'liqlik yetarli o'rganilmagan
Imkoniyatlar	Raqamli texnologiyalar yordamida avtomatik statistik tahlil imkoniyati
Tahdidlar	Ayrim ko'rsatkichlarning subyektiv talqin asosida shakllanishi

Ushbu SWOT tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobotlari statistik tahlil uchun muhim ma'lumotlar bazasi bo'lib xizmat qilsa-da, ularni samarali qo'llash uchun tizimli yondashuv zarur. Kuchli tomonlari – buxgalteriya hisobotlarining qonuniy asosda rasmiylashtirilishi, muntazamlik, aniqlik va tartibga solingan shaklda mavjud bo'lishi – statistik tahlilni amalga oshirishda ishonchli manba sifatida ishlashiga imkon yaratadi. Ayniqsa, vaqt qatorlari asosida trendlar, o'zgarishlar va prognozlarni aniqlashda ushbu hisobotlar alohida o'rin tutadi.

Shunga qaramay, ba'zi zaif jihatlar statistik ishlov berish jarayonida muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, kichik biznes subyektlarining noto'liq yoki sifatsiz hisobotlari, statistik klassifikatorlarga to'liq mos kelmasligi, shuningdek, subyektiv baholashlarga asoslangan bandlarning mavjudligi tahlil natijalarining aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Imkoniyatlar jihatidan qaralganda, zamonaviy texnologiyalar – masalan, raqamlashtirish, sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) buxgalteriya ma'lumotlariga avtomatik ishlov berish va ilg'or statistik metodlarni qo'llash imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, buxgalteriya va davlat statistika tizimi o'rtasidagi integratsiyalashuv bu jarayonni yanada optimallashtiradi.

Biroq, xavf-xatarlar mavjud bo'lib, ular orasida hisobotlar manipulyatsiyasi, ma'lumotlarning noto'g'ri aks ettirilishi va metodik cheklovlar alohida tahdid hisoblanadi. Bu esa statistik tahlil natijalarining ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

SWOT tahlil natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, buxgalteriya hisobotlari statistik tahlil uchun kuchli asos bo'lib xizmat qiladi, biroq bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun mavjud zaifliklar va xavf-xatarlarni kamaytirish, statistik metodlar bilan uyg'un ishlash mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi. Shu bois buxgalteriya axborotlarini statistik tahlilga moslashgan holda optimallashtirish, ularni raqamlashtirish va standartlashtirish ustuvor vazifa bo'lishi lozim.

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

XULOSA

O'tkazilgan nazariy tahlillar, adabiyotlar tahlili hamda SWOT tahlil asosida aniqlanishicha, buxgalteriya hisobotlari moliyaviy ko'rsatkichlarning statistik baholanishida muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, yillik va choraklik hisobotlar asosida moliyaviy ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasini o'rganish, tarmoqlar kesimida solishtirish va iqtisodiy faoliyat tahlilini chuqurlashtirish mumkin. Biroq amaliyotda buxgalteriya hisobotlari va statistik tahlil orasida metodologik tafovutlar, ma'lumotlar sifatidagi nomuvofiqliklar va integratsiyaning sustligi kuzatiladi. Shuningdek, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarida hisobotlarning sifati va to'liqligi statistika uchun yetarli bo'lmagan holatlar mavjud.

Buxgalteriya hisobotlari kuchli va tizimli axborot manbai sifatida statistik tahlilni samarali amalga oshirishga imkon bersa-da, bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun tizimli va metodik yondashuv zarur. Shu bois, mavjud salohiyatdan ilmiy va amaliy jihatdan oqilona foydalanish iqtisodiyotni barqaror boshqarish, moliyaviy monitoringni kuchaytirish va qaror qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib, buxgalteriya hisobotlari asosida moliyaviy ko'rsatkichlarning statistik tahlilini takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy va ilmiy asoslangan takliflarni ilgari suramiz:

1. *Buxgalteriya hisobotlari tarkibiy qismlarini standartlashtirish* – statistik tahlilga mos keladigan shakl va mazmun jihatidan yagona formatlarni ishlab chiqish va joriy etish.

2. *Buxgalteriya va statistika tizimlari integratsiyasini kuchaytirish* – moliyaviy hisobotlarni to'g'ridan-to'g'ri statistik ma'lumotlar bazalariga bog'lash orqali tahlil jarayonini avtomatlashtirish.

3. *Kichik korxonalar va tashkilotlarda buxgalteriya hisobining sifatini oshirish* – o'quv kurslari, raqamli dasturlar va metodik qo'llanmalar orqali hisobotlarni ishonchli shakllantirishga ko'maklashish.

4. *Statistik tahlil uchun mo'ljallangan axborot texnologiyalarini keng joriy etish* – Business Intelligence tizimlari, sun'iy intellekt va big data asosidagi tahlil vositalarini buxgalteriya ma'lumotlari bilan uyg'unlashtirish.

5. *Tahlil metodologiyasini takomillashtirish* – SWOT, PESTLE, regression tahlil kabi zamonaviy uslublarni buxgalteriya hisobotlariga tatbiq qilishni ilmiy asoslash va ommalashtirish.

6. *Moliyaviy tahlilning statistik interpretatsiyasini amaliyotga joriy etish* – hisobotlarda aks ettirilgan ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmunini statistik kategoriyalar asosida baholash amaliyotini kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gujarati, D. (2003). *Basic Econometrics*. McGraw-Hill
2. <https://lex.uz/docs/-4746047>
3. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2023-yil yakuniy hisoboti. www.stat.uz
4. Karimov A.A., Qurbonboev S.S., Jo‘manazarov A.A. (2019). *Moliyaviy hisob va audit*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
5. Yusupova K.A. (2025). Buxgalteriya balansining statistik tahlili. *O‘zbekiston ilm-fan jurnali*, 36(1), 12–20.
6. Niyozov A., Akramov B. (2022). Raqamli buxgalteriya tahlili. *Uzbek Accounting Journal*, 3(1), 25–34.
7. M.Mamatkulov (2022). *Moliyaviy tahlil: amaliy qo‘llanma*. Toshkent.
8. Qurbonboev S.S. (2021). Tahlilning nazariy asoslari. *TDIU Ilmiy Axboroti*.
9. Myskova R., Hájek P. (2018). Comprehensive Assessment of Firm Efficiency. *Journal of Competitiveness*, 10(2), 132–147. <https://doi.org/10.7441/joc.2018.02.09>
10. Coenders G. et al. (2022). Financial Ratios Compositional Analysis. *EJOBSAT*, 8(1), 59–76. <https://doi.org/10.11118/ejobsat.2022.005>
11. Alqam M.A. et al. (2021). Financial Ratios and Investment Decisions. *International Journal of Financial Research*, 12(2), 168–180. <https://doi.org/10.5430/ijfr.v12n2p168>
12. Suthar K.U. (2018). Financial Ratio Analysis Using Statistics. *IJRASET*, 6(3), 328–332. <http://www.ijraset.com>